O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ БД 60710100-60710200
2024 yil “09” 17

“TASDIQLAYMAN”
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024 yil “__”_____

O’ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	700 000-Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta’lim sohasi:	710 000-Muhandislik ishi
Ta’lim yunalishi:	60710100-Kimyo muhandisligi 60710200-Biotexnologiya 60710700-Elektronika va asbobsozlik

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
O'EYT1204	2024-2025	2	4
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek, rus		4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy yuklama hajmi (soat)
	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	60	60	120

2. ***Fanni o’qitishning maqsadi*** – O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan hududlardan biri, o‘zbek xalqi boy tarixiy o‘tmish va bebaho ma’naviy merosga egaligi, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko‘rsatib berish va jamiyat hayotida, ijtimoiy turmush tarzida ma’naviyatning asosi bo‘lmish tarix fanining o‘rnini talaba yoshlarga o‘zlikni anglash vositasi sifatida, shuningdek, O‘zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida barkamol avlodni tarbiyalashda, shaxs, fuqaro, inson, jamiyat va davlat tamoyili mohiyatini yetkazib berishdan iborat.

Bu bilimlar buyurtmachi sohalar uchun talab qiladigan mustaqil fikrlaydigan, malakali kompetentlikka ega, kreativ, innovatsion salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashga, shuningdek, talabalarda vatan taqdiriga daxldorlik hissi, yangicha dunyoqarash va vatanparvarlik his-tuyg’ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanni o’qitishning vazifalari – boy tarixiy o‘tmish, xususan, o‘zbek davlatchiligiga tarixiy ekskurs uyushtirish, qarama-qarshiliklarga boy ziddiyatli XX asr tarixi mazmun-mohiyatini ochib berish, mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistonda yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hamda boshqa sohalarda amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga to‘liq tushuntirib berish, ularni Va tanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda Yangi O‘zbekiston yoshlarida milliy g‘urur va iftihorni shakllantirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Kirish. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati. Kirish.“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” – O‘zbekiston tarixining uzviy va ajralmas qismidir. “Eng yangi tarix” tushunchasi va uning izohi. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsad va
vazifalari. Fanni o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning yuksak intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi

tarixining tutgan o‘rni to‘g‘risida. XXI globallashuv asrda ta’lim sohasida mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy-konseptual yondashuv va ilg‘or innovatsiyalar. Yangi O‘zbekiston yoshlari ta’lim-tarbiyasidagi ma’naviy mezonlarni targ‘ib etishda tarix fanining tutgan o‘rni.

2-mavzu. O‘zbekistonda mustaqillik g‘oyalarining tarixiy ildizlari. Mustaqillik arafasida O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

Davlatchilik tushunchasi. O‘zbek davlatchiligi va uning tarixiy bosqichlari. Mamlakatimiz erki va ozodligi uchun kurashgan qahramon shaxslar: Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi va boshqalar. Amir Temur – buyuk davlat arbobi va sarkarda. Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti.

O‘rta Osiyoning xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabab va oqibatlari.

Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida. Milliy ozodlik harakatlari. Mustamlaka boshqaruv tartiboti va uning mohiyati. Fidoyi jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati va ularning o‘lka ma’rifiy va madaniy hayotida tutgan o‘rni. Sovet hukmronligi davrida O‘zbekistonning markazga ijtimoiy -siyosiy va iqtisodiy qaramligi va uning oqibatlari. Sovetlarning qatag‘on-zo‘ravonlik siyosati va uning mohiyati. XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat. “Qayta qurish” siyosati va uning O‘zbekistonga ta’siri. Markaz tomonidan “Paxta ishi”, “o‘zbek ishi” kabi mash’um kampaniyalarning o‘tkazilishi. Aholi turmush tarzining og‘irlashuvi. Orol fojiasi. Farg‘ona voqealari. 1989 yil o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1989-1991 yillarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar va ularning mohiyati. 1991 yil avgust voqealari. GKChP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

3-mavzu: O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi va uning tarixiy ahamiyati. O‘zbekiston o‘zining rivojlanish va taraqqiyot yo‘lida.

Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O‘zlikni anglashga intilishning kuchayishi. Siyosiy tizimdagi o‘zgarishlar.Mustaqillikning e’lon qilinishi. O‘zbekiston Respublikasining tashkil etilishi. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’yharakatlar. Mustaqil O‘zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I.Karimovning tarixiy xizmatlari.

Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lining tanlashi. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan strategiya asoslarning ustuvor yo‘nalishlari. Mustaqillik me’yoriy-huquqiy asoslarining yaratilishi. 1992 yil Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzlari.

4-mavzu. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, siyosiy islohotlarni amalga oshirish.

O'zbekiston milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatni taqsimlash printsipi. Mustaqil O'zbekistonda ko'p partiyali tizimning shakllanishi va uning ahamiyati. Mustaqil O'zbekiston siyosiy partiyalari faoliyatining xususiyatlari. Mustaqil O'zbekistonning parlament tizimi va uni isloh qilish. O'zbekistonda ikki palatali parlamentni shakllantirish. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston davlat hokimiyatining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Mahalliy hokimiyat organlari va ulardagi

o'zgarishlar. O'zbekiston huquq-tartibot va sud tizimidagi o'zgarishlar. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish. Mustaqillik yillarida O'zbekiston ommaviy axborot vositalari. O'zbekistonning nodavlat, notijorat tashkilotlari hamda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etish. Mustaqil O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik. Mustaqil O'zbekiston o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati. Va ularning mustaqil O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirishdagi o'rni. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Mustaqil O'zbekistonda fuqarolik huquqlarini ta'minlash va himoya qilish.

5-mavzu. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkning shakllanishi. O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish konsepsiyasi. O’zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo’nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Bozor munosabatlariga o’tishning huquqiy asoslarining yaratilishi. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilini amalga oshirilish mexanizmi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo’jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo’nalishlari. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish. Jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelish sabablari, oqibatlari va uni O’zbekistonda bartaraf etish yo’llari. Mamlakat iqtisodiyotining modernizasiya va diversifikasiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash borasidagi chora-tadbirlar. Soliq tizimidagi islohotlar.

6-mavzu. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy o'zgarishlar.

Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo’naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, sog’liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joylar bilan ta’minlash, yo’l-transport muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy yordamni amalga oshirishdagi ishtiroki.

O’zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

7-Мавзу. Mustaqillik yillarida respublikaning ma'naviy va madaniy rivojlanishi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ma'naviy hayot va ma'rifat. O'zbekiston Respublikasida milliy mustaqillik mafkurasi va g'oyasi masalalari. (milliy manfaatlar, ma'naviy qadriyatlar, qayta tug'ilish)

Milliy qadriyatlar, marosimlar va an'analarning tiklanishi.Buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga e'tibor.O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimovning ajdodlar milliy qadriyatlari va merosini qayta tiklashdagi xizmatlari.Buxoro, Samarqand, Marg'ilon, qarshi, Toshkent, Xiva, Shahrisabz qadimiy shaharlarining yubileylarini jahon miqyosida nishonlash. Toshkentni "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilish va uning ahamiyati. Madaniyat va san'atning rivojlanishi. Xalqaro tanlovlar va festivallarni o'tkazish. Milliy sport turlarini rivojlantirish. Sh. M.

Mirziyoyevning beshta tashabbusi va uning yuksak ma'naviy madaniyatni ta'minlashdagi roli. Millatlararo va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosati.Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi.

8-mavzu. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlar.

Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiyaning o'rni va roli. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "milliy kadrlar tayyorlash dasturi"ning qabul qilinishi. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning maqsad va vazifalari. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ni amalga oshirish mexanizmi va uning asosiy bosqichlari. Ta'limning milliy modelini shakllantirish va rivojlantirish va uning muammolari. O'zbekistonda yangi avlod kadrlarini tayyorlash sohasidagi o'zgarishlar. Oliy ta'lim to'g'risidagi qonunlar O'zbekistonda qabul qilinishi va ularda qo'yilgan vazifalar. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish: muvaffaqiyat va kamchiliklar.

9-mavzu: O'zbekiston va jahon hamjamiyati

O’zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. O’zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo’lga qo’yilishi. O’zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo’lishi va jahon hamjamiyatidagi o’ziga xos o’rni. O’zbekistonning MDHdagi o’rni va mavqyeining oshib borishi. O’zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o’zaro hamkorlik aloqalari. O’zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari. Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi. O’zbekiston tashqi siyosatida Rossiya, AQSh, Xitoy mamlakatlarining o’rni.

O’zbekistonning geosiyosiy va geoiqtisodiy o’rni. O’zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash borasida olib borgan siyosati. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O’zbekiston Respublikasining faolligi. O’zbekistonning ShHT bilan aloqalari. O’zbekistonning Markaziy Osiyo, Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi davlatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi. O’zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosatining yangi bosqichi. O’zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash borasida olib borgan siyosati. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o’ylangan, o’zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo’nalishlar.

10-mavzu. Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlarning xalqaro reytinglari va indekslarida aks etishi.

“O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o’rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish” borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo’nalishdagi ishlarning samaradorligiga to’siq bo’layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan choratadbirlar:

O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo’lgan xalqaro reyting va indekslar bo’yicha samaradorlikning eng muhim ko’satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar. “Biznes yuritish indeksi”, Boshqaruv sifati indikatorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, “Korruptsiyani qabul qilish

indeksi”, “Logistika samaradorligi indeksi”, “Jahon bankining Statistik salohiyat indeksi”, “Iqtisodiy erkinlik indeksi”, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi. “Inson kamoloti indeksi”, “Huquq ustuvorligi indeksi”, “Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi”, “Matbuot erkinligi indeksi” va boshqalar.

11-mavzu. Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahnamoligi va tashabbusi bilan amalga oshirilgan islohotlar.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g’oyasi va uning mohiyati. O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023 y. 30 aprel). Konstitutsiya XXI asr zamonaviy O‘zbekistonining asosiy qonuni.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi.

12-mavzu. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.

2016 yil sentyabridan virtual qabulxonalarning ochilishi. 2017 yildan keyingi davrda jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy o‘zgarishlarning xususiyatlari, davlat organlarining xalq bilan muloqotining kengayishi, Xalq qabulxonalarning faoliyati hamda mahalla institutlarining yanada takomillashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar. Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati va O‘zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamonaviy munosabat. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar**.**

13-mavzu: Samarqandning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni. Shaharning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.

Samarqand jahonning eng qadimgi shaharlaridan biri — salkam 3000 ming yillik tarixga ega. Arxeologik qazishmalardan ma’lum bo‘lishicha, yuqori paleolit davrida ham Samarqand hududida odamlar yashagan. Muhammad an-Nasafiy „al-Qand fiy zikri ulamoi Samarqand“, Haydar as-Samarqandiy „Qandiyai Xurd“, Abu Tohirxoja Samarqandiy „Samariya“, Xitoy tarixchisi Chjan Syan, yunon va rimlik tarixchilar Arrian, Kursiy Ruf va boshqa ko‘plab mualliflarning asarlarida bu haqda yozib o‘tilgan. Samarqand va Rim insoniyat taqdiridagi buyuk xizmatlarini nazarda tutib „Boqiy shaharlar“ nomini olganlar. „Samarqand“ so‘zining kelib chiqishi haqida bir qancha tahmin mavjud. Antik mualliflarning asarlarida shahar Marokanda deb atalgan. Rimning tengdoshi bo‘lgan Samarqand dunyoning eng keksa shaharlari Afina, Vavilon, Fivalar qatorida turadi. Markaziy Osiyoda unga tengdosh boshqa shahar yo‘q. Samarqand timsolida tarix va haqiqat, afsona va rivoyatlar uyg‘unlashib ketgan.

Allomalar Samarqandni “Yer yuzining sayqali”, “Nur taralib turguvchi

nuqtasi", "Musulmon dunyosining gavhari", "jannati firdavsmonand" deb ulug'lashgan. Samarqand miloddan avvalgi minginchi yillardayoq Sharq va G'arb tsivilizatsiyalarini bog'lab turuvchi markazga aylangan edi. U g'arbda Vizantiya, janubda Vavilon, Shumer, Hind, sharqda Xuanxe, Yantszi, shimolda Sahroi Nomadlar tsivilizatsiyalarini bir-biriga tutashtirib turgan. Shu sabab ham Samarqand Sharq tsivilizatsiyasi rivojida juda muhim rol o'ynagan. Samarqand qadim-qadimdan ilmiy-madaniy markaz bo'lib kelgan.

14-mavzu: Samarqand Amir Temur va temuriylar davrida.

X-XI asrda yashab ijod qilgan Abu Sa'id Abdurahmon ibn Muhammad al-Idrisiy, XII asrda Najmiddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy as-Samarqandiy "Kitob al-qand fi tarixi Samarqand", Abulfayz Muhammad ibn Abdujamol ibn Abdumalik Haydar as-Samarqandiy "Qandiyai xurd" va yana yuzlab tarixiy, geografik, adabiy-badiiy asarlarda Samarqand shahri tarixi, unda yashab o'tgan buyuk siymolar hayoti bayon qilingan. Samarqand qadim-qadimdan barcha uchun ochiq shahar hisoblangan. Unda turli etnik va diniy qarashlarga mansub odamlar qo'nim topishgan. Zardushtiylik, buddizm, nasroniylik, yahudiylik, islom e'tiqodiga mansub xalqlar tinch-totuv yashaganlar. Samarqand ahli uchun bag'rikenglik qadimdan an'ana, qadriyat bo'lgan. Shuning uchun ham Samarqand millatlararo totuvlik hamda dinlararo bag'rikenglik madaniyatining o'ziga xos maskani va mash'ali bo'lgan. Temur va temuriylar hukmronligi davrida Samarqand davlat poytaxti sifatida XIV asrning oxirlari XV –asrlarda Sharqning eng go'zal shahri, Markaziy Osiyoning yirik iqtisodiy, siyosiy, madaniy markaziga aylandi. Bu davrda Samarqandda o'nlab binolar, g'arbiy qismida esa shahar qal'asi barpo etildi.

15-mavzu: XVI-XIX asrlar Samarqandda ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayot.

Samarqand XVI asrda shayboniylar davlatining poytaxti bo'lganda ham, Buxoro xonligi davrida ham muhim iqtisodiy va madaniy markaz bo'lib qolaverdi. Yalangto'sh Bahodir hokimligi davrida Registon maydonida Sherdor (1619-1636), Tillakori (1646-1660) madrasalari, Xo'ja Axrori Vali qabri oldida Nodir devonbegi madrasasi va boshqa binolar qurildi. XVIII asrning 80-yillarida Samarqand shahrini Amir Shohmurod qayta tikladi va 24 ta mahallaga asos soldi. XIX asr boshiga kelib esa Samarqand yirik shahar qiyofasiga ega bo'lgan. Samarqandning «eski shahar» qismida shahar mahallarga bo'lingan va mahallar guzarlarga bo'lingan. Samarqand shahrining 4 ta yirik mahallaga (qismga) bo'lingan:

1) Poyqoboq; 2) Qalandarxona; 3) Xo'ja Ahror; 4) So'zanganron.O'z navbatida Poyqoboq 22 ta, Qalandarxona 20 ta, Xo'ja Axror 22 ta, So'zanganron 27 ta guzardan (kvartal) iborat bo'lgan.

III. Seminar (yoki <u>seminar yoki laboratoriya</u>) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. Kirish. O'zbekistonning eng Yangi tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, uni o'rganishning nazariy-metodologik tamoyillari.

Reja:

1.O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi.

2."O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsad va

vazifalari.

3.Fanni o’rganishning nazariy-uslubiy asoslari.

4.Yuksak intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o’rni.

5.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti .M.Mirziyoevning ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o’rni va saboqlari to’g’risidagi fikrlari.

2-mavzu. O‘zbekistonda mustaqillik g‘oyalarining tarixiy ildizlari. Mustaqillik arafasida O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

Reja:

1. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotidagi inqirozli vaziyat.
2. 1989 yil o'rtalarida respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar.
3. Milliy manfaatlarning ustuvorligini oshirish.
4. O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritish kursi. SSSRning qulashi

3-mavzu. O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi va uning tarixiy ahamiyati. O‘zbekiston o‘zining rivojlanish va taraqqiyot yo‘lida.

Reja:

1. O’zbekistonning davlat mustaqilligini qo’lga kiritish tomon yo’l tutishi.
2. Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishi.
3. O’zbekiston davlat mustaqilligining e’lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.

4-mavzu. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, siyosiy islohotlarni amalga oshirish.

Reja

1.Davlat boshqaruvining milliy tizimini shakllantirish jarayoni.

2.Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatni taqsimlash printsipi.

3.O'zbekistondagi siyosiy partiyalar faoliyatining xususiyatlari.

4.Huquqni muhofaza qilish organlari va sud tizimidagi o'zgarishlar.

5.O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish.

5-mavzu. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkning shakllanishi. O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.

Reja

1. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish konsepsiyasi.
2. O 'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning asosiy yo' nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.
3. Bozor infratuzilmasini shakllantirish. Qishloq xo'jaligi va sanoatdagi islohotlar, ularning vazifalari va asosiy yo'nalishlari.
4. 2008 yilgi jahon moliyaviy inqirozining sabablari, oqibatlari va uning O'zbekistondagi oqibatlarini bartaraf etish yo'llari.

6-mavzu. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohadagi islohotlar.

Reja

1. Kuchli ijtimoiy siyosat kontseptsiyasini shakllantirish, uning rivojlanish bosqichlari. Manzilli ijtimoiy himoya tizimini yaratish.
2. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.
3. "Korrupsiyaga qarshi kurash to' g 'risida" gi o ' zbekiston Respublikasi Qonunining mohiyati va mazmuni hamda uni hayotga tatbiq etishdagi qiyinchiliklar.

7-mavzu. O‘zbekistonning mustaqillik yillarida ma’naviy-madaniy taraqqiyoti.

Reja:

1. Ma’naviy merosning tiklanishi.
2. Tarixiy xotiraning tiklanishi.
3. Milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishi.
4. Milliy istiqlol go‘yasi.

8-mavzu. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlar.

Reja:

1. Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiyaning o'rni va roli.
2. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "milliy kadrlar tayyorlash dasturi"ning qabul qilinishi. Ularning maqsadlari, vazifalari va amalga oshirishning asosiy bosqichlari.
3. Ta'limning milliy modelini shakllantirish va rivojlantirish va uning muammolari.
4. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish: muvaffaqiyat va kamchiliklar.

9-mavzu. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.

Reja

1.O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari.

2.O'zbekistonning MDH bilan munosabatlari. O'zbekistonning Yevropa davlatlari bilan munosabatlari. O'zbekiston va AQSh.

3.O'zbekiston va xalqaro tashkilotlar.

4.Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiyasi.

10-mavzu. Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlarning xalqaro reytinglari va indekslarida aks etishi.

11-mavzu. Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M. Mirziyoyev rahnamoligi va tashabbusi bilan amalga oshirilgan islohotlar.

Reja

1. 2017-2021 va 2022-2026 yillarda O'zbekistonning harakatlari va rivojlanishi strategiyasini ishlab chiqish va ularning ahamiyati.
2. Davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish vazifalari va insonparvar davlat qurilishi jarayoni
3. Qonun ustuvorligini ta'minlash va O'zbekiston sud-huquq tizimini isloh qilish masalalari.
4. O'zbekiston ijtimoiy sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Adolatli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish.

12-mavzu. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.

Reja

1. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari hamda uning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash
2. Ma'naviy rivojlanishni ta'minlash va ushbu sohani yangi bosqichga ko'tarish vazifalari
3. Millatlararo totuvlikni, diniy bag'rikenglikni ta'minlash.
4. Mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyatini mustahkamlash, ochiq,

pragmatik va faol tashqi siyosat yuritish.

13-mavzu: Samarqandning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni. Shaharning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.

Reja:

1. Afrosiyob devoriy sur’atlari - Samarqand tarixini o’rganishda muhim manba
2. Ilk o`rta asrlarda Samarqandning Buyuk ipak yo’lida tutgan o’rni
3.Islom dining Samarqandda yoyilishi

14-mavzu: Samarqand Amir Temur va temuriylar davrida.

Reja:

1.Samarqand-Temuriylar davlatining poytaxti
2. Mirzo Ulug’bek akademiyasi faoliyati
3.Temuriylar davrida Samarqand me’morchiligi

15-mavzu: XVI-XIX-asrlarda Samarqandning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.

Reja:

1.Registon majmuasi, Mirzo Ulug’bek rasadxonasi.
2. Amir Temur maqbarasi, Shohizinda ziyoratgohi, Xoja Doniyor qadamjosi
3. Bibixonim jome’ masjidi, Xazrati Xizr masjidi

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

№	Mustaqil ish mavzulari	Manbalar
1.	Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati	1. Новейшая история Узбекистана. Учебник (под ред проф М.А Рахимов. Т : 2018 – 37-49 стр) 2. Мустакил Ўзбекистан тарихининг дастлабки сахифалари. - Тошкент, 2000. 31-49 б. 3. Эркаев А. Ўзбекистон йўли. - Тошкент: Маънавият, 2011. 56-74 б. 4. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабиров. - Тошкент: Академия, 2013. 11-31 б.
2.	Demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining vujudga keltirilishi, O‘zbekistondagi siyosiy islohotlar.	1.Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт Стратегияси.. Т.2022.Ўзбекистон. 2. Новейшая история Узбекистана. Учебник (под ред проф М.А Рахимов. Т : 2018 – 117-119 стр)
3.	Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.	1.Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М Мирзиёевнинг Олий Олий Мажлисга Мурожаатномаси 19 январ 2021 йил. www.uzbekistonmt.uz.; 2. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт Стратегияси.. Т.2022.Ўзбекистон. 3.Новейшая история Узбекистана. Учебник (под ред проф М.А Рахимов. Т : 2018 – 147-167 стр).

	4.	O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy o‘zgarishlar.	1. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт Стратегияси.. Т.2022.Ўзбекистон. 2. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Масъул муҳаррир А.Сабиров. - Тошкент: Академия, 2013. 11-31 б. 3. Новейшая история Узбекистана. Учебник (под ред проф М.А Рахимов. Т : 2018 – 189-225 стр).	
	5.	Qoraqalpoqiston mustaqillik yillarida.	1. Қорақалпоғистон тарихи (1917-1994 йй.). - Нукус, 1995. 5-67 б. 2. Қорақалпоғистон Республикасини ижтимоий - иқтисодий ривожлантириш стратегияси. Тошкент. 2013. 252-300 б.	
	6.	O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.	1. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт Стратегияси.. Т.2022.Ўзбекистон 2. Зойир И. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти: халқаро муносабатлар ва ташқи алоқаларнинг ташкил қилиш. Тошкент. 2008. 600-701 б. 3. Новейшая история Узбекистана. Учебник (под ред проф М.А Рахимов. Т : 2018 – 377-455 стр).	
	7.	Yangi O‘zbekiston: Milliy tiklanishdan milliy taraqqiyot sari	1.2021-2026. йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт Стратегияси ҳақида.. Т.2022.Ўзбекистон – lex.uz 2. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт Стратегияси.. Т., 2022.	
	8.	“Samarqand madaniy marifiy muassasalar faoliyati” mavzusida Samarqand viloyatidagi muzeylar, teatrlar, xiyobonlar, OTMlar, kutubxonalardan biri to‘g‘risida ma’lumot to‘plab taqdimot tayyorlash	1. Alimova D. A. Buryakov YU. F. “Samarqand tarixi” (Qadimgi davrlardan bugungi kungacha) T.: “Art Flex” 2009-y. 2. Курахмедов Э., Сидикова М.. Мустақиллик йилларида Самарқанд шаҳри: Тараққиёт ва бунёдкорлик. «Самарқанд», 2016- йил.	
	9.	“Samarqand allomalari va davlat arboblari” mavzusida Samarqand allomalari va arboblaridan biri to‘g‘risida ma’lumot to‘plab konspekt qilish;	Абу Тохирхожа . Самария. Т, 1991 Бердимуродов А. “Самарқанд тарихидан томчилар” Самарқанд 2012. Berdimurodov A., Indiaminova SH. Buyuk Ipak Yo‘li. T.; “O‘zbekiston” 2017.	
	10.	“Samarqand me’moriy yodgorligi tarixi”	Холиқулов Р., Саттарова И. Самарқанд вилоятидаги тарихий обидалар, муқаддас	

	mavzusida Samarqand viloyatidagi me’moriy yodgorliklardan biri to‘g‘risida videolavha tayyorlash;	қадамжолар тарихи. Самарқанд 2018. Сувонқулов И. «Самарқанд қадамжолари», «Самарқанд»,2002 йил Berdimurodov A., Indiaminova SH. Buyuk Ipak Yo‘li. T.; “O‘zbekiston” 2017.	
11.	Mustaqillik yillarida Samarqandda amalga oishirilgan bunyodkorlik ishlari mavzusida ma’lumotlar to‘plab konspekt qilish;	Alimova D. A. Buryakov YU. F. “Samarqand tarixi” (Qadimgi davrlardan bugungi kungacha) T.: “Art Flex” 2009-y. Курахмедов Э., Сидикова М.. Мустақиллик йилларида Самарқанд шаҳри: Тараққиёт ва бунёдкорлик. «Самарқанд», 2016- йил.	
12.	Men tug’ilib o’sgan hudud tarixi mavzusida konspekt qilish;	Alimova D. A. Buryakov YU. F. “Samarqand tarixi” (Qadimgi davrlardan bugungi kungacha) T.: “Art Flex” 2009-y. Бердимуродов А. “Самарқанд тарихидан томчилар” Самарқанд 2012.	
13.	Rossiya mustamlakasi davrida Samarqand mavzusida ma’lumotlar to‘plab konspekt qilish;	Alimova D. A. Buryakov YU. F. “Samarqand tarixi” (Qadimgi davrlardan bugungi kungacha) T.: “Art Flex” 2009-y. Muxiddinov S.I. XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Samarqand maorifi. T- 2022	

“O’zbekistonning eng yangi tarixi” fani bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati mavzusida O’zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, davlatning mustaqillikka erishishgacha bo’lgan bosib o’tgan qadami haqida talabada bilim ko‘nikmasini shakllantirish e’tiborga olingan. Masalan, Mustaqil O’zbekiston Respublikasining mustaqillikacha bo’lgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti, mustaqillikdan keyingi davlat boshqaruvi, Yangi O’zbekistonda olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayot haqida o‘quvchilar bilim ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar izlanishlarolib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to‘g‘risda talabalar qay tarzda o‘zlashtirish, bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi. Ushbu mavzular talabalar mustaqil ishining maqsadi fundamental bilimlarni o'zlashtirish, mutaxassislik bo'yicha bilim, kasbiy kompetentlik va ko'nikmalar, tajriba, ijodiy, tadqiqot faoliyati, mas'uliyat va tashkilotchilikni rivojlantirishga yordam beradi; ta'limiy va kasbiy muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvdan iborat.

Mustaqil ta’lim vazifalari quyidagilardan iborat:

-olingan nazariy va amaliy bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash;

-talabalarning malakasi oshirilishi;

	- nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish; - me’yoriy, huquqiy, ma’lumotnomadan foydalanish; - malakalarini shakllantirish; -hujjatlar va maxsus adabiyotlar bilan ishlash ko’nikmasi; -talabalarning bilim qobiliyati va faolligini rivojlantirish; -ijodiy tashabbuskorlik, mustaqillik, mas'uliyat va tashkilotchilik; -mustaqil fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirish; -o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini o'zi anglash.	
3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:** • mustaqillikka erishish arafasida O’zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni, ularning sabablari va oqibatlarini; • mustaqillik yillaridagi o’zgarishlarni, O’zbekistonning eng yangi tarixi masalalarini, zamonaviy jarayonlarda O’zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o’rnini tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan ***bilishi*** kerak; • O’zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o’rganish, dunyoqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g’oyasini qo’llay bilish, atrofida sodir bo’layotgan jarayonlarga o’z munosabatini bildira olish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida tarix fanining o’rnini anglash va bugungi kunda sodir bo’layotgan voqyealarning tarixdagi muhim voqyealar bilan bog’liqligini bilish ***ko’nikmalariga ega bo’lishi*** kerak. • O’zbekistonning eng yangi tarixini chuqur bilish, ma’naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo’yicha o’z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy mustaqillik g’oyalariga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi ***malakalarga ega bo’lishi*** kerak.	
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** ma‘ruzalar; interfaol keys-stadilar; munozara, o’z-o’zini nazorat. “Aqliy hujum”, “Muammo”;	
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish	

6.	**Rahbariy adabiyotlar:** 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, Oʻzbekiston, 2023 yil 2. 2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent - 2022 yil 3. Oʻzbekiston Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "Oʻzbekiston – 2030" strategiyasi. 4. Mirziyoyev Sh.M. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi. Samarqand axborotnomasi, 2022 yil 21 dekabr 5. Sh.M. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. 1-jild. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2017. 6. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2017. 7. Sh.M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bagʻishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2017. 8. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2017. 9. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toʻldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2022. 10. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023. 11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yoʻlini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2023. 12. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi Oʻzbekiston. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2024. **Asosiy adabiyotlar** **1.** Alimova D. A. Buryakov YU. F. "Samarqand tarixi" (Qadimgi davrlardan bugungi kungacha) T.: "Art Flex" 2009-y. **2.** Бердимуродов А. "Самарқанд тарихидан томчилар" Самарқанд 2012. **3.** R.H. Murtazayeva Oʻzbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz soʻz, 2019. **4.** R.H.Murtazayeva, A.A.Yermetov, A.A.Odilov va boshq. Oʻzbekistonning eng yangi tarixi. - Toshkent, 2024. **5.** B.J.Eshov, A.A.Odilov. Oʻzbekiston tarixi. 2-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024. **6.** К.Д.Саипова. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). – Ташкент: NIF MSH, 2024. **7.** O'zbekistonning eng yangi tarixi. Mualliflar jamoasi. O`quv qo`llanma. SamDU.2022 **8.** O'zbekistonning eng yangi tarixi. Mualliflar jamoasi. Uslubiy ko`rsatma. Samarqand.2022

9. F.X.Nabiyev. Ijtimoiy nazorat. Darslik. Samarqand-2020
10. Sh.S.Gafforov.O`zbekistonda ta`limtizimi tarixi.Darslik.SamDU 2021
11. Muxiddinov S.I. XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Samarqand maorifi. T- 2022

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Д.М.Иноятова. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие для вечерних отделений). - Ташкент: Metodist nashriyoti, 2023
2. Т.И.Дорошенко. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие для заочного отделения). - Ташкент: Metodist nashriyoti, 2023.
3. Левитин Л. Узбекистан на историческом повороте. Москва, Вагриус,2001
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 3-китоб, Т., Шарк, 2000
5. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар), 2 китоб, Тошкент, Ўзбекистон, 2019
6. Мустакил Ўзбекистон тарихининг дастлабки сахифалари. - Тошкент, 2000.
7. Shavkat Mirziyoyevning sakkizta asosiy islohoti, Rossiya biznesi (2018-yil 19-fevral).
8. Усманов К. История Узбекистана: Период национальной независимости. Тошкент, Ўқитувчи, 2007.
9. N.Oblamurodov. F.Tolipov. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022..
10. История Самарканда. 1-2 том. Ташкент, Фан, 1971.
11. Абу Тоҳирхўжа. Самария. Тошкент, 1991.
12. Сувонкулов И. Самарқанд қадамжолари. Самарқанд, 2002.
13. Бердимуродов А., Индиаминова Ш. Буюк ипак йўли. Тошкент, Ўзбекистон, 2017.
14. Курахмедов Э., Сидикова М. Мустақиллик йилларида Самарқанд шаҳри: Тараққиёт ва бунёдкорлик. Самарқанд, 2016.

Axborot manbalari (saytlar):

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.gov.uz.

7	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2024 yil _____avgustdagi _____son bayonnomasi bilan ma'qullangan**.**
8	**Fan/modul uchun mas'ullar**: **Vafayeva Dj.B.**- SamDU, "O'zbekiston tarixi" kafedrasi, tarix fanlari nomzodi, professor; **Nasrullayev M.I.-** SamDU, "O'zbekiston tarixi" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi;

	Xoliqulov R.Sh.- SamDU, “O’zbekiston tarixi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi. **Raximov B.** – SamDU, “O’zbekiston tarixi” kafedrasi katta o’qituvchisi, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori PhD.
9	**Taqrizchilar:** **Raximov B.** – SamDU, “O’zbekiston tarixi” kafedrasi katta o’qituvchisi, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori PhD. **G’oyibov B.S. –** Sharof Rashidov nomidagi SamDU, “O’zbekiston tarixi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari doktori (ichki) **Mardonov R** – TATU Samarqand filiali dotsenti.

Samarqand davlat universiteti Tarix, sirtqi ta'lim yo'nalishlari uchun tuzilgan "O`zbekistonning yangi tarixi" fani O'quv dasturiga

TAQRIZ

Fan dasturlari oliy ta'lim muassasasining kadrlar tayyorlash uchun yaratilgan ilk majmuaviy yo'l ko'rsatkichidir. O'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta'lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Har bir O'quv dasturi uqtirish xati, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar singari 3 qismdan iborat. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturining muhim belgisidir. Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturilarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma ket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi

O'zbekistonning yangi tarixi fani dasturi mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu dasturda O'zbekistonning yangi tarixi fanining dolzarb masalalarini innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan. Har bir qo'yilgan masala fundamental bilimlar va ularni asoslovchi manbalar hamda adabiyotlarga tayangan holda bayon qilingan.Ma'ruza mashg'ulotlari uchun tanlangan mavzular annotatsiyalar bilan boyitilgan va asoslangan.Seminar mashg'ulotlari uchun yangi pedogogik texnologiyalarga moslashgan holatda munozaraga sabab bo'luvchi mavzular tanlangan. Shuningdek, amaliy ko'chma mashg'ulotlar tarixiy muzeylarda o'tkazilishga mo'ljallangan holda tuzilgan.

Dasturda fani bo'yicha ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim

texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dasturda fanning mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak tarixchi va tarix fani o`qituvchisi kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab olgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushub o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan bunay o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tarix ta'lim sirtqi yo'nalishi talabalari uchun "O`zbekistonning yangi tarixi" fani o'quv dasturini ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

TATU Samarqand filiali dotsenti **R.Mardonov**

KADRLAR BO'LIMI

Imzosini tasdiqlayman

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TATU SAMARQAND FILIALI KADRLAR BO'LIMI BOSHLIG'I:

Samarqand davlat universiteti Tarix fakultetining talabalari uchun tuzilgan

"O`zbekistonning yangi tarixi" fani O'quv dasturiga

TAQRIZ

O`quv dasturlari ta'lim tizimidagi har bir o'quv fanining mazmuni va o'tilish tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi. O'zbekistonda O'quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar yoki tegishli oliy ta`lim muassasalari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Har bir O'quv dasturi o'qtirish xati, o'quv fani mazmunining qisqa bayoni, talabalarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar singari 3 qismdan iborat. O'quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish O'quv dasturining muhim belgisidir. Chunki ayni shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifiga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalni to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amaliyotida O'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan O'quv dasturida ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keyingi bosqichida yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi O'quv dasturilarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketmaket joylashtiriladi.

Ta'limning O'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi

Ushbu o'quv dasturi Tarix fakultetining arxeologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tuzilgan.

Dastur "O`zbekistonning yangi tarixi" fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unga mazkur yo'nalish xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ularni bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy va qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dasturda fanning mazmuni, talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar bo'lajak tarixchi va tarix fani o'qituvchisi kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalarni o'z ichiga qamrab olgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatidan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va uni tarix ta'lim ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "O`zbekistonning yangi tarixi" fani o'quv dasturini ta'lim jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

SamDU "O`zbekiston tarixi" kafedrasi katta o'qituvchisi **B.Raximov**

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - Xolmatov N.O.

Kafedra mudiri: **Dj.B.Vafayeva**
Institut direktori: **S.X.Uroqov**
Sh. Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **A. S. Soleyev**